



SHIRINMIYA O'SIMLIGINI DORIVOR XUSUSIYATI MAVZUSI

Boltayeva Dilnoza Zokirovna

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-134>

ARTICLE INFO

Received: 12th February 2023

Accepted: 21th February 2023

Online: 22th February 2023

KEY WORDS

Faol moddalar, Shirinmiya, marfologiya, fiziologiya, burchoqdoshlar oilasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Shirinmiya o'simligining dorivorlik xususiyat, ekologiyasi, marfologiyasi haqida ma'lumot berilgan.

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 15 fevraldagi 138-sonli "Qizilmiya va dorivor o'simliklarni yetishtirish hamda sanoatda qayta ishlashni samarali tashkil qilishda qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, ayniqsa, ularni yangi bosqichga ko'tarish bilan ahamiyatlidir. Negaki, ushbu qarorga binoan "Qizilmiya o'simligini yetishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi va 2019 — 2023 yillik rejada qizilmiya ekishni Qoraqalpog'iston Respublikasida 25000 gektarga yetkazib berish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, qizilmiyaning ball-boniteti past bo'lgan maydonlarda ekilishi ko'rsatib o'tildi. Chunki 5 yil ichida qizilmiya o'stirilgan tuproqning sho'rlanganlik darajasi 2,5 gacha barobar kamayib, azot, gumus bilan to'yinadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, rentabelsiz bir gektar maydonda 5 yil davomida qizilmiya o'stirish uchun 20 million so'm xarajat qilinib, 14 tonna o'simlik ildizini olish mumkin. Jahon bozorida esa uning bahosi yuqori. Qolaversa, ekin poyasidan ham 8000 tonna quruq mahsulot. Yerning meliorativ holati yaxshilanib, unumdorligi ortadi. Ildiz hosili yig'ishtirib olingan yerga boshqa ekin ekilmasa, zarur agrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali o'simlikni qayta tiklash va yerdan har yili, yana hosil yig'ib olish mumkin. Bu esa shu ish bilan shug'ullanuvchi dehqonlar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham, qisqacha aytganda, iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda foydali. Davlatimiz rahbariyati ostida yangi bosqichga kirgan ishlar ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Shirinmiya o'simligi dukkakdoshlar (burchoqdoshlar) -Fabaceae oilasining Glycyrrhiza turkumiga mansub turkum 1753 yili K.Linney kuzatuvida aniqlangan bo'lib, uni 3 ta turga ega ekanligini ko'rish. G.Glabra L, G. Echinata L, G.Hirsuta L. Glycyrrhiza turkumining barcha turlari Buass'ya (Boisser, 1872) 2 ta seksiyaga tegishli: Eugycyrrhiza Bois va Meristotropis Bois. ustiga esa Engler (Engler, 1894) uchunchi seksiya sifatida Glycyhizopsis Boiss.et Bal turkumini qo'shgan.

SHIRINMIYA, qizilmiya —burchoqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't. Poyasi tik, bo'yi 50—20 sm, shoxlangan, ba'zan shoxlanmagan, tuklar bilan qoplana. Ildizi o'q ildiz,



shoxlangan, 5—6m chuqurlikkacha boradi. Barglari toq patsimon, uz. 8-20 sm. Gullari qiyshiq (zigomorf), ikki jinsli. Mevasi 3—7 urug'li dukkak. Urug'i qattiq, mayda, mosh rang. Aprelning boshidan iyungacha gullaydi. Avgustda pishadi. Asosan, Yevropa va Osiyoda tarqalgan. Daryo yoqalarida, ariq va zovur bo'ylarida, qumloq yerlarda, tog' yon bag'irlarida, ba'zan 2500 m balandlikkacha bo'lgan yerlarda, kam va o'rta sho'rlangan tuproqlarda ham o'sadi. Amudaryo, Sirdaryo, Ural va Ili to'qayzorlarida Shirinmiyaning katta maydonlarni egallagan o'tloqzorlari mavjud. Shirinmiya qadimdan qimmat dorivor o'simlik sifatida ma'lum. Uning ildizi tarkibidagi gormonal faol gliksirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi modda, 30 ga yaqin flavonoidlar va boshqalar bor. Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan mahsulotlar yallig'lanish, allergiya, zaharlanish, Addison kasshtligi, bod, belangi, bo'g'ma, sil, chipqon, ekzema va boshqa kasalliklar davolanadi. Oziq ovqat, kimyo va kon metallurgiya sanoati mahsuloti. Shirinmiyaning poyasi tarkibidagi yog', qand, karotin, vitamin S va boshqalar, yemxashak bor. Undan yaxshi pichan va silos rivojlanishi. O'zbekiston FA "Botanika" ilmiy ishlab chiqarish markazida Shirinmiyaning serhosil, qurg'oqchilikka va tuproq sho'rlanishini yaxshilash maqsadida; urug'i va ildizpoyasidan ko'rish usullari, afotexnikasi ishlab chiqarish; yiliga 2-marta hosil olish mumkinligi isbotlangan.

Qizilmiya ildizlaridan quritib, quruq va quyuk ekstraktlar shamollash, sil hamda o'pka, jigar, nafas yo'llari va yurak-qon kasalliklarida, modda bilan davolashni me'yoriga keltirishda, bo'g'ma, onkologik, ovqatdan zaharlanish, oziq-ovqat, me'da hamda o'n ikki barmoqli ichak yarasida, teri kuyishida va boshqa xastaliklarda tavsiya qilinadi.

Oziq-ovqat sanoatda qizilmiya ildizidan oziqlantirish, qandolatchilik va non mahsulotlari, murabbo, shinni, konserva, oziq-ovqat konsentratlari, saqich, tish pastasi va boshqalar tayyorlanadi. Yengil sanoatda rangli bo'yoqlar olinsa, metallurgiya sanoatda metallarni gidrolizlashda, kimyo sanoatida siyoh ishlab chiqarishda, qog'ozlarga rang berishda qo'llanilgan. Uning chiqindisidan esa qog'ozli termoizolyatsiya plita, qog'oz mahsulotni ishlab chiqarish mumkin. Shu bois bugungi kunda ushbu o'simlikka AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Yaponiya, Germaniya, Vengriya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab davlatlarda talab yuqori.

Qizilmiya qishloq xo'jaligida ham juda foydali. Masalan, undan olingan faol moddaning 1 milligrammini 1 litr suvga aralashtirib, kartoshkaga berilsa, kurtaklarning uyg'onish ko'rsatkichi 28 foiz oshadi. g'unchalash va gullash fazalari tezlashadi, natijada hosildorlik 17 foiz ortadi.

Yurtimizda olib borilgan ilmiy izlanishlar tufayli qizilmiyaning morfologik anatomiyasi va reproduktiv biologiyasi, uni turli sharoitlarda o'stirish usullari o'rganildi. Jumladan, o'simlik Mirzacho'lning sho'r tuprog'ida ham yaxshi rivojlangan, tuproq unumdorligini oshiruvchi kuchli meliorant isbotlangan. Bu usul, ayniqsa, almashlab ekishda yuqori samara berishi aniqlandi.

Qizilmiya ildizi tuproqning gipsli qatlamini ham teshib o'tadi va yer osti suvidan oziqlanadi. Shu bois uni tabiiy namlikda ham parvarishlash mumkin. Tuproqqa o'zining sirli ta'sirini o'tkazuvchi, hech bir qismini chiqindi qilib tashlab yubori qizilmiya ekinzorlarini himoya qila olmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanmadan, eksport mahsuloti hisoblangan xom-ashyo o'simliklarini o'rganish va undan



keyingi bugungi kunda ishlab chiqarish masalalaridan biridir. Shunday xom-ashyo o'simliklardan biri hisoblangan shirinmiya o'simligiga (Glycyrriza gloabra f) bo'lgan talab meditsina, oziq-ovqat, tog'-metallurgiya, kimyo, farmasevtika kabi sanoatlarda va bozorda talab yildan-yilga yoki bozorda ishlab chiqarish ortib bormoqda. Keyingi inson faoliyati jarayonlari, o'simliklarni rejadan foydalaniladi massiiga xom ashyo O'zR "Qizil kitob"iga yoki butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Tabiatni nazorat qilish uchun tayyorlanmaydi. tashkilotlar, o'z xo'jaliklarini yashil bolalarimizga yordam berish, undan foydalanishga alohida e'tibor berish kerak.

References:

1. PratoV U.P. O krasnoy kniga Respublika Uzbekiston. V sb. "Aktualniye problemi biologii, ekologii i pochvovedeniya" Respublika ilmiy-amaliy
2. Yuldashev A. S. K primeneniyu senopopulyacionnogo podxodo pri izuchenii lekarstvennix rasteniy. xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallar. Andijon 2007 yil.
3. www.google.com internet sayti